

## CHET TILI DARSLARINI O'TISH JARAYONIDA ZAMONAVIY INNOVATSION METODLARNING AHAMIYATI HAQIDA

**Boymurodova Munavvar Odiljon Qizi**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston  
Milliy Universiteti Xorijiy filologiyasi  
fakulteti Fransuz tili filologiyasi 4 - kurs talabasi.

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda chet tilini o'qitishning zamonaviy usullari hamda ularni dars jarayonida qo'llashning afzalliklari haqida fikr mulohazalar bildiriladi

**Kalit so'zlar:** hamkorlikdagi faoliyati, ilg'or pedagogic metodlar, zamonaviy ta'lim, innovatsion metodlar.

**Аннотация:** В данной статье высказаны мнения о современных методах преподавания иностранного языка в начальных классах и преимуществах их использования в ходе урока.

**Ключевые слова:** совместная деятельность, передовые педагогические методы, современное образование, инновационные методы.

**Annotation:** In this article, opinions are expressed about modern methods of teaching a foreign language in elementary grades and the advantages of using them in the course of the lesson.

**Keywords:** cooperative activities, advanced pedagogical methods, modern education, innovative methods.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni, har xil qiziqarli o'yinlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O'ylaymizki, u o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi. Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar beramiz. Siz undan ijodiy yondashgan holda foydalanasiz va prezidentimizning: «*Har qarichi muqaddas bo'lgan ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda g'urur va iftixor, sadoqat tuyg'ularini uyg'otish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab ko'raylik*», - degan fikrlariga javoban ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy usullarini tatbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishishga o'z hissangizni qo'shasiz degan umiddamiz.

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda chet tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar usullarni qo'llash natijasida, o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanishi, nutqi ravonlashishi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanishi, bilimga ishtiyoq uyg'otishi, darslarga puxta hozirlik ko'rishga intilishi haqida ma'lumotlar berilgan. Boshlang'ich sinflarda, ayniqsa, birinchi sinfda o'quvchilarga o'qitishda o'quvchining yoshi, fiziologik, psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish, eng samarali vositalardan biridir. O'yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlashi kengayib boradi. Darsga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Olimlar ta'limga o'yin orqali yondashuv ta'lim jarayonida osonlashtiradi, deb hisoblagan. Nafaqat osonlashtiradi, balki bu fanga qiziqishini kuchaytirib, bolani chuqur bilim olishiga undaydi. O'yin tarzidagi darslar bolalarning og'zaki nutqini rivojlanishiga yordam beradi. Birinchi sinf o'quvchilari rasmi yoki videoli turli ko'rishlarni juda yaxshi ko'rishadi. Turli xil rangli rasmlar orqali, ularning nutqlarini o'stirishda o'yinlardan muntazam foydalanib turish lozim. Masalan, Bu nima?, Bu kim?, Kim ko'p so'z biladi? kabi o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin jarayonida bolalarning so'zlarni eslab qolishi, to'g'ri talaffuz etishiga qarab rag'batlantirib borish zarur. Ayniqsa " oqmi qorami", " qizil quti"ya'ni "red box", " lug'at boyligi" ," garov so'zi" kabi yangi metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarni darsga jalb qilish zarur.

Mavzuni kompyuter yordamida taqdim etishda ta'limni individuallashtirish printsipiga e'tibor berish lozim. Ayrim o'quvchilar so'zning grafik, ayrimlari esa tovushli obrazni qabul qilishda qiyinchilikka uchraydilar. Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchi sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Hozirgi davr darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda o'qituvchilar Xorij pedagoglari tajribasini o'rganib, innovatsion metodlardan, va yangi pedagogik texnikalardan foydalanishlari lozim. Boshlang'ich sinf ta'lim usullari odatdagi ta'lim usullaridan biroz farq qiladi, chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari juda yosh. Ta'lim maydoni turli xil qobiliyatlar va shaxslar bilan birgalikda ishlaydigan o'quvchilar bir joyga to'planadigan juda dinamik muhit sifatida ajralib turadi va o'qituvchilarning vazifasi har biri uchun o'zlarini ya'ni o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun ijodiy va innovatsion ta'lim strategiyalarini amalga oshirishga qodir samarali o'qituvchilar bo'lishi muhimdir.

Boshlang'ich maktablarda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan eng yaxshi o'qitish usullaridan ba'zilari quyidagilardir: amaliy ta'lim tajribasi orqali zerikarli ilmiy tushunchalarni hayotga olib kelish, o'quvchilarga ularning hayotda qanday qo'llanilishini tushunishga yordam berish. O'quvchilarni kichik guruh yoki butun sinfning faoliyatini rag'batlantirish orqali birgalikda ishlashga qodir bo'lgan o'quvchilarni rag'batlantirish. O'quvchilarni savol berishga va o'z g'oyalarini o'rganishga da'vat qilimoq, ularga muammolarni hal qilish qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi, shuningdek, ilmiy tushunchalarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Har ikkisi ham muhim hayotiy ko'nikmalar. Hech kim ortda qolmasligi uchun o'quvchilarning qobiliyatiga qarab vazifalarni taqsimlash orqali ta'lim jarayonini farqlash va belgilash.

Muntazam kasbiy rivojlanish dasturlarida ishtirok etish o'qituvchining dars berish qobiliyatlarini yaxshilashning ajoyib usuli hisoblanadi.

Samarali o'qituvchi bo'lish oson ish emas, chunki har bir o'quvchi noyobdir, ammo ta'lim strategiyalarining kombinatsiyasidan foydalanib, o'qituvchilar ta'lim uslublarini hamda o'quvchilarning bilim salohiyatlarini va imkoniyatlarini hisobga olib, sinfdagi o'quvchilar uchun dinamik va motivatsion muhitni yaratish lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.:
2. Axmedov M.Sinflarda innovatsion metodlarning ahamiyati
3. Nilufar Mahamadjon,Qizi Qo`chqorova, Darslarda-innovatsion-metodlar
4. Ingliz tilini o`qitishning mativlarining xususiyatlari. T 2012
5. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory and Its Reflection In French Phraseology." *Journal of Positive School Psychology* (2022): 2883-2889.
6. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love". Конференции. 2021.
7. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of “Historical Memory” Within French and Uzbek Phraseology." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
8. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into “Historical Memory” in French and Uzbek Linguistic Traditions." *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
9. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing “Historical Memory” In Uzbek and French Languages." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
10. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development* 2.11 (2023): 490-492.
11. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." *Академические исследования в современной науке* 2.17 (2023): 165-169.
12. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." *Academic research in educational sciences* 3.5 (2022): 1176-1182.
13. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 879-884.
14. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." *O`ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI*, 2023,[1/4] (2023).